

GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI" DOSTONIDAGI O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAMGA  
KIRUVCHI ANTROPONIMLAR

Davlatnazarov Davlatnazar Ro'zmatboy o'g'li

UrDU talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida qo'llanilgan antroponimlarning lug'aviy tarkibi ya'ni qaysi qatlamga mansubligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** antroponim, real nom, noreal nom, atoqli otlar...

**Annotation:** In this article, the lexical composition of the anthroponyms used in the epic "Go'ro'g'lining tug'ilishi" is analyzed, that is, to which layer they belong.

**Key words:** anthroponym, real name, non-real name, common nouns...

**Аннотация:** В данной статье анализируется лексический состав антропонимов, использованных в эпосе "Go'ro'g'lining tug'ilishi", то есть к какому слою они относятся.

**Ключевые слова:** антропоним, настоящее имя, ненастоящее имя, имена нарицательные...

Dostonlar onomastikasida kishi nomlari– qahramonlarga qo'yilgan nomlar ya'ni antroponimlar majmuasi alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu nomlar ham o'z navbatida etnografik va lingvistik jihatdan alohida guruhlarga ajraladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi. O'zbek xalq dostonlarining onomastikasidagi atoqli nomlar genetik jihatdan aslida qaysi tildan kelib chiqishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Biz tahlil qilishni maqsad qilgan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni leksikasidagi antroponimlar ham qaysi qatlamga mansubligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: O'zbek xalq dostonlarining onomastikasidagi atoqli nomlar genetik jihatdan aslida qaysi tildan kelib chiqishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Biz tahlil qilishni maqsad qilgan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni leksikasidagi antroponimlar ham qaysi qatlamga mansubligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1.Dostonda qo'llanilgan o'z qatlamga kiruvchi antroponimlar.

2.Dostonda qo'llanilgan o'zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar.

Dostonda quyidagi tillarga mansub ismlarning qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz: arabcha, forscha, tojikcha, o'zbekcha va boshqa tillar. Quyida esa doston tarkibidagi antroponimlarning qaysi lug'aviy qatlamga kirishi yuzasidan qilingan tahlili bilan tanishamiz.

Dostonda qo'llanilgan o'z qatlamga kiruvchi antroponimlar. Bu turga kiruvchi ismlar sof turkiy (o'zbekcha) nomlar hisoblanadi. Masalan:

Xotinidan bir bola bo'ldi. Otini Qo'ng'irboy qo'ydi.

Qo'ng'irbo'y so'zi qo'ng'ir sochli yoki qo'ng'ir ko'zli bola yoki Qo'ng'iro't(qar) ismining qisqargan shakli.

Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rda chiroq yonib turar adi.

Go'ro'g'li Aynan: Go'rda tug'ilgan bola. Bu ism o'zbek xalq dostonlari qahramoni Go'ro'g'li nomiga nisbat berib qoyiladi. Qadimiy turkiy tilda gor – kor-botir, dovyurak, pahlavon ma'nolarini bildiradi

Dostonda qo'llanilgan o'zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar. Bu turga kiruvchi ismlar boshqa tillardan bizning tilimizga kirib kelgan arabiy, forsiy hamda yunon tillaridan kelib chiqqan antroponimlar hisoblanadi. Masalan:

• Arab tilidan o'zlashgan antroponimlar:

-Kelgan lashkar kim ekan bilib kelinglar!-deb o'zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig'ini birnecha odamlarga qo'shib, elchi qilib yubordi.

Zamon zamonasining munosib va suyuqli hurmatli farzandi.

Shohdorxon podsho hammasini qo'yib yubordi. Lekin Shohdorxonning Hamza degan bir odami bor edi.

Hamza O'tkir, achchiq, kuldiruvchi, yondiruvchi, chiroq yoki dorivor o'simlik nomi. Bu nom Muhammad (s.a.v.) tog'asining ismi bo'lgan.

Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherga bir tarsaki urdi

Xizr ismining ma'nosi yashil rangli, Xizr – abadiy tiriklik, barhayotlik, omadlilik timsoli. Rivoyatga ko'ra, hayot suvi bulog'ini topib ichgan afsonaviy payg'ambarning nomi. Shu uchun doimo barhayot deb hisoblanadi. U yo'ldan adashganlarga, oshiq'larga yol korsatuvchi, rahnamo deb hisoblanadi. Xidirning pok, pokiza, pardali (niqobli) ma'nolari ham mavjud

Anal bilan Mansur qurgan dormidi,

Tirik ayrilgan, bir ko'rgali zormidi,

Yur, chirog'im, deydi meni qo'yimaydi,

Senda aka, menda tog'a bormidi?

Mansur so'zi afzal, ustun , g'olib , muzaffar degan ma'nolarni bildiradi.

• Fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponim:

Rustam:

-Endi davlatga ega bo'ldim, xotin olmasam sira ham bo'lmaydi,-deb Badgir deganning singlisini oldi.

Badgir ismi to'g'ri ishni , gapni teskariga buruvchi; ha deb gina qilaveruvchi , gina saqlovchi; kekchi.

Badkir tilla soqqadan bo'lgan oshiqni qo'lga olib, Go'ro'g'lini aldab, ushlab olib kelay, deb Go'ro'g'linining oldiga yaqinlab keldi.

Badkir kam qo'l. Yomon qabih, razil; shunday ishlar qiluvchi inson degan ma'noni bildiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, dostonda qo'llanilgan o'z va o'zlashgan qatlamga mansub so'zlar tarixan kelib chiqishi turli xil. Yana shuni alohida

ta'kidlashimiz lozimki, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida qo'llanilgan antroponimlarning ko'pchiligini, asosan, arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponimlar tashkil qiladi. Ular anglatgan ma'nolar ham turlicha. Ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz mobaynida shu kabi o'zlashgan va o'z qatlamga kiruvchi nomlarni o'rganamiz hamda tahlilga tortamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

- 1.Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
- 2.Сатторов Ғ.Ҳ. Ўзбек исмларннииг туркий қатлами. Н.Д.А. - Тошкент, 1990.
- 3.Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007 – 608 б.